


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti rektori A. U. Sattarov

2024 yil "30" avgust



Ro'yxatga olindi: №BD-7091020-1.03

2024 yil "30" avgust

AKUSHERLIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	900000	– Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000	– Sog'liqni saqlash
Mutaxassislik:	70910201	– Akusherlik va ginekologiya

Tuzuvchilar:

B.Q.Xudoyqulov Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Tibbiyot kafedrası mudiri , t.f.n.dotsent

Taqrizchilar:

Sultonov.R.K.. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Tibbiyot kafedrası dotsent v/b, PhD

Kattaxodjaeva M.X. Toshkent Davlat stomatologiya instituti xirurgik yo‘nalishlar kafedrası professori, t.f.d.

Fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universitetida ishlab chiqilgan.

Fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Markaziy uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2024 yil “29 iyul” dagi “18”-sonli bayonnoma).

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Ilmiy Kengashida 2024__ yil “__” _____ dagi __ -sonli qarorining __ ilovasi bilan Fan dasturi ro‘yhati tasdiqlangan.

1.O‘quv Fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadlaridan biri tibbiyotda har tomonlama kamol topgan yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirish, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdir. Mazkur Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va magistratura 70910201 - Akusherlik va ginekologiya yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan.

Akusherlik Fani - zamonaviy tibbiy va pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga tadbiiq etgan holda, klinik tibbiyotni asosiy qismlaridan biri bo‘lib, zamon talablariga javob beruvchi ayollarga tibbiy yordam ko‘lamini oshirishning asosi hisoblanadi.

Akusherlik ilmiy va tajribaviy yo‘nalishi fiziologik va patologik homiladorlik va tug‘ruqni, homiladorlik davridagi patologik holatlarini aniklashni, zamonaviy tibbiyotni ulkan yutuklariga asoslanib davolashni va profilaktika chora tadbirlarini o‘rganishni kamrab olib, bo‘lg‘usi akusher-ginekolog mutaxassisida Sog‘liqni Saqlash tizimining barcha bo‘g‘inida klinik jixatdan tashxislash, yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsata olish hamda doimiy davolash va profilaktika chora-tadbirlarini o‘tkazish uchun zamin yaratib beradi. Zamonaviy global jamiyatda onalik va bolalikni axamiyati beqiyosdir. Tug‘ilish sur‘atlari, ona va bola kasallanish ko‘rsatkichlari har qanday mamlakatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va sivilizatsiya bosh ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Akusherlik Fani mutaxassislik blokiga kiritilgan Fan hisoblanib, magistraturaning 1 va 3 kurslarida o‘qitilishi maqsadga muvofiq. Mutaxassislik bo‘yicha nazariy o‘qitish seminar mashg‘ulotlari tarzida o‘tkaziladi. Amaliy o‘qitish (magistrlik amaliyoti) akusherlik komplekslarda homiladorlik patologiyasi va tug‘ruq bo‘limlarida o‘tkazilib, bu yerda magistr har bir rotatsiyaga tegishli amaliy ko‘nikmalar ro‘yxatiga ko‘ra bemorlarni kuratsiya qiladilar, qo‘shimcha tekshirishlar natijalarini mustaqil interpretatsiya qiladilar, davolash diagnostika muolajalarni amalga oshiradilar va fiziologik, patologik va operativ tug‘ruqni olib boradilar.

2. O‘quv Fanining maqsadi va vazifasi

2.1. Fanning maqsadi – zamonaviy akusherlik amaliyotida kerakli hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir..

2.2. Fanning vazifalari: akusherlikka oid nazariy bilimlarga, amaliy ko‘nikmalarga, uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga o‘rgatish.

2.3. Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:

Talaba:

– sog‘liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas’uliyati haqida;

– O‘zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo‘nalishlari) haqida;

– sog‘liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar haqida;

– sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to‘g‘risida;

- tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yoʻnalishlari, fiziologik va patologik homiladorlik, tugʻruq va tugʻruqdan keyingi davrni diagnostikasi va davolashda yangi texnologiyalari haqida;
- patologik homiladorlik va tugʻruqning epidemiologik maʼlumotlari, etiologik va xavf omillarining taʼsiri, patogenezining zamonaviy nazariyalari, tasniflari, diagnostikaning, shu jumladan erta diagnostikaning zamonaviy usullari, turli bosqichlarda davolash sxemalari, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash organlarining akusherlik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlar toʻgʻrisida;
- akusherlik patologiyalarni davolash jarayonida kompyuter texnologiyalarining oʻrni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, maʼlumotlarni saqlash haqida;
- operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish toʻgʻrisida **tasavvurga ega boʻlishi**;
- akusherlik amaliyotida «komanda» boʻlib ishlash tamoyillarini;
- fiziologik va patologik homiladorlik, tugʻruq va tugʻruqdan keyingi davrlarining zamonaviy laborator-instrumental va funksional tekshirish usullarini;
- homiladorlik va tugʻruq vaqtidagi asoratlar rivojlanishi omillarini;
- homilaning yurak faoliyatini baholash usullarini; homila oʻsishi monitoringi, oʻsishdan orkada kolish sindromini, homila nuqsonlarini skriningini, homila holati va akusherlik xavfni baholashni;
- gormonal va immunologik tekshiruvlarni, kolpotsitologiyani, endoskopik tekshiruv usullarini;
- tugʻruqning boshlanishini tashxislash, uning klinik kechishini, homila boshi bilan kelganda tugʻruq biomexanizmini;
- tugʻruqdan keyingi davr fiziologiyasi, klinik kechishini;
- homila noanik xolati, chaqaloq asfiksiyasi, diagnostika usullarivadavolashprinsiplari, chaqaloqreanimatsiyasitamoyillarini;
- homila va chaqaloqlarda Rh-antigen vaAB0 tizim buyicha gemolitik kasalligini;
- homiladorlar qusishi, etiologiyasi va patogenezini, koʻp va kam uchraydigan toksikozlar klinikasini, davolashni, homiladorlar qusishining kompleks terapiyasini;
- homiladorlardagi gipertenziv buzilimlarni zamonaviy tashxislash, davolash va profilaktika usullarini, magnezial va antigipertenziv davo, homiladorlik va tugʻruqni olib borish;
- homiladorlardagi gipertenziv buzilimlarni asoratlarini (tarqalgan tomirichi qon ivish (TTIQI) sindromi, HELLP-sindrom, homiladorlar jigar yogʻli gepatozini) tashxislash, davolash va profilaktika usullarini, rehabilitatsiyasini;
- yurak, qon–tomir kasalliklarda homiladorlikning kechishi: orttirilgan va tugʻma yurak nuqsoni, gipertoniya kasalligi, arterial gipotenziya, varikoz kasalligi; homiladorlikni olib borish va kuzatish tamoyillari, muddatidan oldin homiladorlikni toʻxtatishga koʻrsatma, tugʻdirishda akusherlik taktikasini tanlashni;
- jigar (turli etiologiyali gepatitlar, sirroz, xolestaz) va buyrak (siydik yullari infeksiyasi, oʻtkir asoratlangan va asoratlanmagan pielonefrit, glomerulonefrit, siydik tosh kasalligi) kasalliklarida homiladorlikni kechishi va tugʻruqni olib borishni;
- qon kasalliklarida (kamqonliklar, leykozlar, Verlgof, Villebrand kasalliklari) homiladorlikni kechishi va tugʻruqni olib borishni;
- qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklarida va semizlikda homiladorlikning kechishi va tugʻruqni olib borishni;

- kuz kasalliklari bor ayollarda xomiladorlik va tugrukni olib borish;
- xomiladorlarda suyak-mushak sistemasi kasalliklari kechishi va olib borish;
- nevrologik kasalliklari bor ayollarda xomiladorlik va tugrukni olib borish;
- homiladorlikda nafas olish kiyinlashishida (bronxial astma, o'tkir respirator infeksiya, pnevmoniya) homiladorlikning kechishi, muddatdan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma va tug'ruqni olib borishni;
 - homiladorlik va o'tkir qorinni (appendisit, o't-tosh kasalligi; o'tkir ichak tutilishi; mioma tugunini nekrozi, tuxumdon kistasi oyoqchasining buralishi, peritonit);
 - homilani ko'tara olmaslik turlari (odatiy homilani ko'tara olmasligi, rivojlanmagan homiladorlik, muddatdan oldingi tug'ruq, qog'onoq pardalarini muddatdan oldin yirtilishi, istmiko-servikal yetishmovchilik) etiopatogenezini, klinikasi va ularni davolash usullarini, muddatiga yetmagan homiladorlikda kesar kesishni;
 - onadan homilaga OITV infeksiya transmissiyasini, antiretrovirusli terapiyani, tug'dirish usullarini, onadan homilaga o'tuvchi OITV infeksiyalar profilaktikasini, tibbiy xodimlarga OITV infeksiya o'tishining oldini olish chora-tadbirlarini;
 - akusherlikda qon ketish sabablarini, normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishi (NJYBK) va yo'ldoshning oldinda kelishining klinikasi, tashxislash, akusherlik taktikasi va profilaktikasini;
 - kindik tizimchasini tushib kolishi klinikasi, tashxislash va akusherlik taktikasi;
 - yo'ldoshning birikish nuqsonlarini (yo'ldoshning qattiq birikishi va o'sib kirishining) klinikasi, tashxislash va akusherlik taktikasini,
 - yo'ldosh qismlari ushlanib qolishi yoki ajralgan yo'ldoshning qisilib qolishining klinikasi, tashxislash va davolash taktikasini;
 - atonik qon ketishining klinikasi, tashxislash va davolashni;
 - tashqi jinsiy azolar, oraliq, qin va bachadon bo'yni jarohatining sabablari, tashxislash va davolashni, bachadon yorilishining sabablari, tashxislash, qiyosiy tashxislash, jarrohlik usuli bilan davolash va profilaktikasini;
 - bachadon tashqariga chiqishi sabablari, davolashni;
 - simfiz ochilishi va yorilishi klinikasi, tashxislash va davolashni;
 - akusherlik oqmalari: etiopatogenez, tashxislash va davolash, profilaktikasi;
 - gemorragik shokning etiopatogenezi, bosqichlari, tashxislashni, davolashni;
 - tarqalgan tomirichi qon ivish (TTIQI) sindrom rivojlanish sabablari va mexanizmini, o'tkir TTIQI-sindrom kechishi tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolashni, TTIQI-sindrom surunkali turlarini tashxislash va davolashni;
 - tug'ruqda ko'p qon yo'qotgan ayollarda trombopatiyani oldindan baholashni;
 - muddatdan o'tgan homiladorlikni sabablari, tashxislash va davolashni;
 - indutsirlangan tug'ruqqa ona va homila tomonidan ko'rsatmalar, tug'ruqni qo'zg'atish muddati va usulini; indutsirlangan tug'ruqni olib borish taktikasini, og'riqsizlantirish usulini, antenatal homila o'limida indutsirlangan tug'ruqni olib borish taktikasini;
 - zamonaviy akusherlikda tor chanoq, tug'ruqdagi homila boshi va ona chanog'ini disproporsiyani tashxislashni, tug'ruqni olib borishni, asoratlarini;
 - preliminar davr, tashxislash usullari, preliminar davrda homiladorni olib borish taktikasini;
 - tug'ruq faoliyati nuqsoni tasnifi, uning sabablari, klinikasi va har xil turdagi tug'ruq nuqsonlarida tug'ruqni olib borish taktikasini, tug'ruqni boshqarishda qo'llaniladigan vositalarning farmokodinamikasi va farmokokinetikasini;
 - ko'p homilalikda, homilaning ko'ndalang va qiyshiq joylashishida,

homiladorlikning kechishi va tugʻruqni;

- koʻpsuvlilik va kamsuvlilikda, bachadon chandigʻida, yirik homilada, kindik tizimchasining tushishida, jinsiy aʼzolar patologik oʻzgarishida, yelkalar distotsiyasida, homila antenatal oʻlimida va boshqa asoratli omillarda homiladorlikning kechishi va tugʻruqni olib borishni;

- qogʻonok suvlari bilan emboliyasi va oʻpka arteriyasi tromboemboliyasi sabablari, klinikasi, tashxislash va davolashni;

- akusherlik qisqichlari, vakuum-ekstraksiya, homilani chanogʻidan ekstraksiya qilish jarrohligiga koʻrsatmani, jarrohlikdan keyingi davrini olib borishni;

- kesar kesish jarrohligiga koʻrsatma, operatsiyadan keyingi davrni olib borish, asoratlarni;

- tugʻruqdan keyingi septik kasalliklar lokal shakllarining etiopatogenezi, klinik turlari, tashxislash va davolash, mastit va uning profilaktikasini, tugʻruqdan keyingi septik kasalliklarning generallashtirilgan shakllari, kesar kesishdan keyingi akusherlik peritoniti, sepsis va toksik shokning etiopatogenezi, klinik kechishi, tashxis, davolash, profilaktikasini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

-anamnez yigʻish, tashqi akusherlik koʻrikni oʻtqazish;

- gormonal. immunologik tekshiruvlar oʻtqazish;

-tibbiy – genetik konsultatsiya oʻtqazish;

-homila xolatini tashxislash, homilaning yurak faoliyatini baholash;

-homiladorlik va tugʻruqning muddatini aniqlash;

-homiladorlik va fetoplasentar tizim holatini tashxislash;

-ultratovush skanirlash, homilani biofizik holatini aniqlash;

-kolpotsitologiyani bajarish;

-qogʻonok suvini tekshirish (amnioskopiya, amniotsentez);

-homiladorlar qusishini davolash va profilaktikasi olib borish;

-gipertenziv buzilishlarni va uning asoratlarini intensiv davolash;

-eklampsiyada birinchi yordamini oʻtqazish, asoratlar oʻtkazgan ayollarni reabilitatsiya qilish;

-bachadon boʻynini yetilganlik darajasini aniqlash (Bishop shkalasi);

-tugʻruqning boshlanishini tashxislash, uning klinik kechishi, tugʻruqni zamonaviy olib borish va ogʻriqsizlantirish;

-boshi va chanogʻi bilan kelganda tugʻruqni olib borish va boʻlishi mumkin boʻlgan asoratlarning oldini olish, partogramma toʻldirish, tugʻruqning III davrini faol olib borish, yoʻldosh butunligini aniqlash;

-homila chanogʻi bilan kelganda kuyidagi (Sovyanov, Lovset, Moris-Smelli-Veyt, klassik) koʻnikmalar bajarish;

-bachadon boʻynini koʻzgularda tekshirish, tugʻruq yoʻllarini yumshoq tuqimalarini tekshirish, bimanual tekshiruv oʻtqazish;

- bachadon boʻyni, qin va oraliq jarrohatlarini tikish;

- postplasentar bachadon ichi vositasini (BIV) qoʻyish;

-gematoma ochish amaliyotini bajarish;

- chaqaloqni Apgar shkalasi boʻyicha baholash, issiqlik zanjirini saqlashni taʼminlab berish, chaqaloq reanimatsiyasini oʻtqazish;

-epiziotomiya, epiziorrafiya vaperineorrafiya oʻtqazish;

-tugʻruqdan keyingi davrni olib borish, tugʻruqdan keyingi davrda ixtiyotiriy jarrohlik sterilizatsiyasi (IJS) amaliyotini bajarish;

-kritik holatlarni aniqlash va olib borish;

- bemorni birlamchi tez baholash va tezkor yordammi o'tqazish;
- asoratlar o'tkazgan ayollarni rehabilitatsiya qilish;
- yo'qotilgan qon miqdorini aniqlash (fiziologik va patologik);
- yo'ldosh oldida kelishini va NJYBKni tashxislash, olib borish va bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish;
- tug'ruqdan keyingi qon ketishini bosqichma-bosqich to'xtatish;
- yo'lodoshni qo'l bilan ajratish va chiqarish, bachadon bo'shlig'ini qo'l bilan tekshirish operatsiyasini bajarish, qorin aortasini bosish, bachadonni ikki qo'l bilan kompressiyani o'tqazish;
- pastki-o'rta laparotomiya, Djoel-Koxen va Pfannenshtil bo'yicha laparotomiya bajarish;
- 3 nafar qon-tomirlarini bog'lash, B-Linch bo'yicha choklarni qo'yish jarrohligini bajarish;
- bachadon amputatsiya, ekstripatsiya jarroxligini bajarish;
- gemorragik shokka qarshi kurashish, gemotransfuziyani bajarish, TTIQI-sindrom profilaktikasi va davolash;
- ona va homila ko'rsatmalariga asosan har xil usullar bilan tug'ruqni induksiyalash (kog'onok pardalarini ko'chirish; amniotomiya o'tqazish, oksitotsin va glandin Ye qo'llash);
- tug'ruqda og'riqsizlantirish, tug'ruqdan va jarrohligidan keyingi davrda og'riqsizlantirish;
- indutsirlangan tug'ruqni olib borish;
- tug'ruqdagi homila boshi va ona chanog'ini disproporsiya xolatlarini aniqlash va olib borish;
- ko'psuvlilik va kamsuvlilikda, yirik homilada, kindik tizimchasining tushishida, jinsiy a'zolar patologik o'zgarishida, bachadon chandig'ida, muddatidan o'tgan homiladorlikda va boshqa asoratli omillarda tug'dirish;
- akusherlik qisqichlari, vakuum-ekstraksiya yordamida tug'ruqni tugatish;
- homilani chanog'idan ekstraksiya qilish;
- kesar kesish operatsiyasi bajarish;
- qorin bo'shlig'ini drenajlash;
- homilani yemirish operatsiyasi bajarish;
- akusherlik jarrohligida og'riqsizlantirish *kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak.*

3. Asosiy nazariy qism

3.1. Fandagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Fanda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

3.2. Fandagi amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

3.2.1. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzular ro'yxati:

1-mavzu: Akusherlik va perinatologiyada tekshiruv usullari. Xomila xolatini baxolash. Antenatal parvarish.

Xomilani holatini xomiladorlik va tug‘ruqda baholash. Xomila yurak faoliyatini baxolash, ultratovush biometriya, xomila biofizik profili, dopplerometriya, KTG; xomilani holatini tug‘ruqda baholash.

Isbotlangan tibbiyot asosida olib borish. Amaliyotda qanday yaxshilash mumkin? Bexatar onalik va effektiv perinatal parvarish. Kerakmi yoki o‘zgartirish kerakmi? Antenatal parvarish. Maqsad. JSST tomonidan ishlab chiqilgan tug‘ruqqacha parvarish yangi modeli. Gravidogramma.

Xomila o‘shishi monitoringi. Xomila nuqsonlarini aniqlash skriningi. Akusherlik xavfini baxolash. Mediko-genetik konsultatsiyalash. Gormonal, immunologik, endoskopik (amnioskopiya, amniotsentez) tekshirish usullari. Xomilador xolatini yaxshilash bo‘yicha bir qancha profilaktik tadbirlar.

2-mavzu: Xomiladorlik fiziologiyasi va kechishi. Fetoplantar tizim. Perinatal xavf omillari. Placenta disfunktsiyasi. Xomila o‘shishi orkada kolishi sindromi. Xomila rivojlanish anomaliyasi. Xomila antenatal o‘limi. Xomila noaniq xolati”.

Ona – yo‘ldosh – homila funksional tizimining bachadon ichi rivojlanish bosqichlari, ontogenezning qaltis davrlari. Homiladorlikda organizmdagi fiziologik o‘zgarishlar. Xomila gestatsion muddatini aniqlash. Placenta disfunktsiyasi (placental yetishmovchilik). Xomila o‘shishichs. Xomila rivojlanish anomaliyasi. Xomila antenatal o‘limi. Xomila noaniq xolati, intranatal asfiksiya. Xavf omillari, olib borish taktikasi.

3-mavzu: Tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi davr fiziologiyasi. Kechishi. Chaqaloq fiziologik davrlari. Chaqaloqlar shoshilinch xolatlari va muammolari. Chaqaloqlar reanimatsiyasi.

Tug‘ruq sodir bo‘lish nazariyalari. Preliminar davr. Bachadon bo‘yni yetilganligini baxolash.

Tug‘ruq davrlari. Tug‘ruqni og‘riqsizlantinish. Ensa bilan kelish tug‘ruq mexanizmi. Tug‘ruqni olib borish bo‘yicha JSST tavsiyasi. Sheriklik tug‘ruq. Xavfsiz tug‘ruq. Pozitsiyani erkin tanlash. 2-davrdagi pozitsiya.

Kuchaniqlarni boshqarish. 1- va 2- tug‘ruq davrini olib borish. 3-davrni faol olib borish. Partogramma to‘ldirish (olib borish prinsiplari, bachadon bo‘yni ochilishi, bosh xarakati, ona va xomila xolati).

Ko‘krak suti bilan boqish: afzalliklari, 1-marta ko‘krak suti bilan oziiqlantirish, baxolash, sut bezi xolati. Ona va chaqaloq birgaligini taminlash. Ona va xomila parvarishi bo‘yicha ilmiy konsultatsiya o‘tqazish.

Chaqaloq to‘liq ko‘rigi (bosqichlari, sog‘lom bola organ va sistemalarini baxolash asosiy xarakteristikasi, antropometriya i onaga maslaxat berish). Chaqaloq issiqlik ximoyasi (issiqlik zanjiri, gipotermiya va gipertermiya, kichik vaznda tug‘ilgan chaqaloq issiqlik ximoyasi, issiqlik zanjirini bajarish). Reanimatsiyadan keyingi chaqaloq parvarishi. Ko‘krak suti bilan boqish. Oksigenoterapiya, infuzion terapiya. Gemodinamani yaxshilash. Talvasa davosi. Kasalxonadan chiqarish kriteriyalari. Ona va xomilani tug‘ruqdan keyingi parvarishi. Chaqaloq reanimatsiyasi: xolatini baxolash, reanimatsiya algoritmi.

To‘satdan bolalar o‘limi sindromi. Tug‘ma rivojlanish nuqsonlari, anomaliyalari, tug‘ruq travmalari bilan tug‘ilgan chaqaloqlar parvarishi. Chaqaloq nafas buzilishlari, qoniqarsiz xolati belgilari, olib borish umumiy prinsiplari, tasnifi, monitoring, parvarishi. Kasalxonadan chiqarish kriteriyalari. Chaqaloq xolatini baxolash.

Shoshilinch davo, kam vaznli bola, kasallik bir qancha belgilari. Tutqanoq va mushak spazmi, letargiya, Glyukoza past darajasi, qusish, qorin dam bo'lishi, diareya, qon ketishi, tug'ruq jaroxatlari. Xomila bachadon ichi infeksiyasi, yuqish yo'llari va davrlari, diagnostika, bola va ona tomonidan infeksiya xavf faktorlari.

4-mavzu: Xomiladorlar ko'ngil aynishi va qusishi. Xomiladorlik va tug'ruq vaqtida gipertenziv buzilishlar, ularning asoratlari.

Homiladorlar qusishining etiologiya va patogenezi, kompleks terapiyasi.

Kam uchraydigan erda toksikozlar shakllari, davolash, profilaktikasi.

Homiladorlikdagi gipertenziv holatlar tasnifi, arterial gipertenziyalar kriteriyalari, preeklampsiya aniqlash va tashxislash, proteinuriya kriteriyalari, olib borish prinsiplari, davolash, profilaktikasi.

Tutqanoq profilaktikasi va davolash. Tug'dirib olishga ko'rsatmalar va usullari.

Tug'ruqdan keyingi davrni olib borish. TTIQI - sindromi etiologiyasi, patogenezi, klinika va zamonaviy davolash va profilaktikasi.

HELLP sindromi, homiladorlar yog'li gepatozi va boshqalar.

5-mavzu: Xomiladorlik va somatik patologiyalar. Antenatal va postnatal depressiya.

Yurak qon tomir kasalliklari, homiladorlikni kechishi, orttirilgan va tug'ma yurak nuqsoni, gipertoniya kasalligi, arterial gipotenziya. Varikoz kasalligi. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Jigar kasalliklari (gepatitlar, jigar sirrozi, xolestaz va boshqalar), homiladorlikni kechishi va olib borish taktikasi. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Buyrak kasalliklari (SYI, glomerulonefrit, STK). Xomiladorlikning kechishi va olib borish taktikasi. Tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Qon kasalliklari (kamkonlik, Verlgof kasalligi, Villebrand kasalligi, leykozlar va boshqalar). Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Endokrin kasalliklar (semizlik, qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari). Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Xomiladorlikda ko'z kasalliklari: miopiya, glaukoma. Diagnostika. Klinika. Asoratlari profilaktikasi. Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Biriktiruvchi to'qima kasalliklari: Tizimli eritematoz (SKV). Tizimli sklerodermiya. Revmatoid artrit. Shegren kasalligi. Klinik kechishi, diagnostika, asoratlari. Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Nevrologik va psixiatrik kasalliklar. Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Nafas siqishii sindromi: o'tkir respirator infeksiya, pnevmoniya, bronxial astma. Klinik kechishi, diagnostika, asoratlari, davolash va olib borish taktikasi. Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Homiladorlik va o'tkir qorin (appenditsit, o't-tosh kasalligi, o'tkir ichak tutilishi, tuxumdon kistasi buralib qolishi, miomatoz tugun nekrozi, peritonit). Asoratlari. Differensial diagnostika. Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

6-mavzu: Ona va xomila immunologik mos kelmasligi. Xomila va chaqaloq gemolitik kasalligi.

Ona va xomila immunologik mos kelmasligi. Diagnostika. Xomiladorlik va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Rh-antitela va AVO sistema bo'yicha xomila va chaqaloq gemolitik kasalligi. Diagnostika (noinvaziv usullari, amnioskopiya, amniotsentez, kordotsentez, bajarishga ko'rsatmalar), davolash.

Xomila gemolitik kasalligida bachadon ichida xomilaga qon quyishga ko'rsatmalar, turlari, asoratlari.

Chaqaloq gemolitik kasalligida qon almashtirishga ko'rsatmalar, texnikasi, asoratlari.

7 mavzu: OIV-infeksiya va xomiladorlik.

Yuqish yo'llari. Xomiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish. Muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma.

Retrovirus terapiya, ko'rsatmalar, asoratlari.

Onadan xomilaga OIV transmissiyasi. Tug'dirib olish usullari. Asoratlari.

Chaqaloq parvarishi va oziqlanishi.

Tibbiyot xodimiga infeksiya o'tishini oldini olish chora tadbirlari.

8 mavzu: Xomiladorlikni ko'tara olmaslik. Muddatidan oldingi tug'ruq. Muddatidan oldin va tug'ruqdan oldin qog'onoq parda yorilishi.

Xomiladorlikni ko'tara olmaslik etiopatogenezi, diagnostikasi, davolashi, profilaktikasi.

Muddatidan oldingi tug'ruq, etiopatogenezi, diagnostika, davolash, profilaktikasi.

Xomiladorlikni ko'tara olmaslikda istmikotservikal yetishmovchilikni xirurgik davolash usullari.

Muddatiga yetmagan xomiladorlikda kesarcha kesish, ko'rsatmalar, asoratlari.

Muddatidan oldin va tug'ruqdan oldin qog'onoq parda yorilishi Diagnostikasi. Xomiladorlik 34 xaftasigacha, 34-37 xaftasida va muddatiga yetgan xolatlarda tug'ruqni olib borish taktikasi.

Kam vazn bilan tug'ilgan chaqaloq. Chaqaloq parvarishi va oziqlanishi.

9 mavzu: Xomiladorlik ikkinchi yarmida, tug'ruqda va tug'ruqdan keyingi davrda qon ketishi. Gemorragik shok va TTIQI-sindrom.

Normal joylashgan yo'ldoshni barvaqt ko'chishi, akusherlik taktikasi va profilaktikasi.

Yo'ldosh oldinda kelishi, akusherlik taktikasi va profilaktikasi.

Yo'ldosh birikish anomaliyalari (yo'ldosh zich birikishi va o'sib kirishi), klinik kechishi, diagnostikasi, akusherlik taktikasi va profilaktikasi.

Yo'ldosh qismlarining qolib ketishi va yo'ldosh qisilib qolishi klinikasi, diagnostikasi va shifokor taktikasi.

Atonik qon ketishi klinikasi, diagnostikasi va shifokor taktikasi.

Akusherlikda massiv qon ketishi sabablari va prognozlash, ayollarda trombotopatiyani prognozlash.

Gemorragik shok, patogenezi, davrlari, diagnostikasi, olib borish taktikasi.

TTIQI-sindromi sabablari va uning ishga soluvchi mexanizmi, tasnifi, o'tkir TTIQI-sindromini davolash, klinika, diagnostika, akusherlik patologiyasi xarakteriga mos ravishda davolash; TTIQI-sindromi surunkali shakli, diagnostika va terapiyasi;

Akusherlikda massiv qon ketishida davolash muolajalarini tashkillashtirish.

10 mavzu: Tug'ruqdagi qoniqarsiz jarayonlar. Chanoq-bosh disproporsiyasi. Ona travmatizmi.

Soxta tug'ruq (diagnostika, korreksiyalash usullari).

Tug'ruq faoliyati anomaliyasi: tasnifi, diagnostikasi, tug'ruqni olib borish taktikasi, asoratlari.

Ayol chanoq'i funksional anomaliyasi: tasnifi, anatomik tor chanoq diagnostikasi. Normal va tor chanoq turli xil shakllarida tug'ruq mexanizmi, kechishi, asoratlari.

Chanoq-bosh disproporsiyasi: tasnifi, diagnostikasi, tug'ruqni olib borish taktikasi, asoratlari.

Jinsiy organlar (oraliq, qin va bachadon bo'yni) jaroxatlari, sabablari, diagnostikasi va davolash taktikasi.

Bachadon yirtilishi tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, prognozlash. Bachadon yirtilishi xirurgik davolash usullari va profilaktikasi.

Simfiz ochilishi va yorilishi klinikasi, tashxis va davolash.

Akusherlik oqmalari etiopatogenezi, tashxislash, davolash va profilaktikasi.

11-mavzu: Bir qancha akusherlik asoratlari va xolatlari: Homilani noto'g'ri joylashishi va noto'g'ri kelishi. Xomila chanoq bilan kelishi. Yelkalar distotsiyasi. Kindik xalqasini tushib qolishi. O'ta taranglashgan bachadonda va chandiqli bachadondagi tug'ruq.

Xomila chanoq bilan kelishi diagnostikasi, tug'ruq biomexanizmi, klinik kechishi, tug'ruqni olib borish, Sovyanov, Lovset, klassik qo'l bilan, Moris-Smelli-Veyt usullari bilan yordam berish. Xomila chanoq bilan kelishida xomiladorni tug'dirib olishga tayyorlash prinsiplari.

Yirik xomila va boshqa xafli omillar bo'lganda birinchi va kayta tug'uvchi xomiladorlarda tug'dirib olish taktikasi. Ona va xomila tarafdin asoratlar.

O'ta taranglashgan bachadon, diagnostikasi, tug'ruqni olib borish taktikasi. Ko'psuvlilikda, ko'p xomilalilikda, yirik xomilada xomiladorlik va tug'ruqni kechishi, asoratlar.

Homilani noto'g'ri joylashishi va noto'g'ri kelishi. Xomila ko'ndalang va qiyshiq joylashishi. Xomiladorlik va tug'ruq kechish asoslari, tug'dirib olish usullari.

Kindik xalqasini tushib qolishi, jinsiy azolar patologik o'zgarishlari, bachadon chandig'ida tug'ruq.

Yelkalar distotsiyasi. Diagnostika. Yordam berish usullari. Ona va bola tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar, ular profilaktikasi. Reabilitatsiya.

12-mavzu: Xomiladorlikni muddatidan oldin to'xtatish. Tug'ruq induksiyasi. Muddatidan o'tgan xomiladorlik.

Homiladorlikni muddatidan o'tib ketishi (diagnostika, sabablari, tug'dirib olish usullari).

Tug'ruq induksiyasi. Ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, sharoitlar, usullari, bachadon bo'ynini tayyorlash. Xomila xolatini va asoratlarini nazorat qilish. Ona va homila tomonidan indutsirlangan tug'ruqqa ko'rsatmalar (og'ir preeklampsiya, bir qancha somatik patologiya, xomila qoniqarsiz holati va boshqalar).

Tug'ruqni qo'zg'atish muddati va usuli. Indutsirlangan tug'ruqni olib borish taktikasi, og'riqsizlantirish usuli. Homila va ona uchun tug'dirish usulining natijasi.

Antenatal homila o'limi. Sabablari. Diagnostika. Asoratlar. Antenatal homila o'limida indutsirlangan tug'ruqni olib borish taktikasi.

Programmalashtirilgan tug'ruqni o'tkazish uchun zarur sharoitlar va usullar.

13-mavzu: Operativ akusherlik.

Homilaning holatini to'g'rilovchi jarrohligi (tashqi va ichki akusherlik aylantirishi), ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, sharoit va texnikasi, ona va bola tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlar.

Akusherlik qisqichlarini, ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, sharoit va texnikasi, ona va bola tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlar.

Vakuüm-ekstraksiya, ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, sharoit va texnikasi, ona va bola tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlar.

Homilani chanog'idan ekstraksiya qilish jarrohlik, ko'rsatma, sharoit va texnikasi, ona va xomila uchun asoratlari.

Kesar kesish operatsiyasi, ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, sharoit va texnikasi. Ona va bola tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlar. Jarrohlikdan keyingi davrni olib borish, asoratlar.

Homilani yemirish jarrohligi, ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, sharoit va texnikasi, ona va bola tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlar.

Akusherlik jarrohlikda og'riqsizlantirish tamoyillari va usullari.

Qon to'xtatish usullari: bachadon bimanual kompressiyasi, qorin aortasini bosish. 3 juft qon tomirlarni bog'lash. Ichki yonbosh arteriyani bog'lash. Bachadon amputatsiyasi. Bachadon ekstirpatsiyasi.

14-mavzu: Xomiladorlik, tug'ruqda va tug'ruqdan keyingi davrda infeksiya.

Xomiladorlik davrida isitma (sistit, o'tkir pielonefrit).

Sifilis. Gonoreya. Xlamidioz. Bakterial vaginoz. V gurux streptokokklar. Listerioz. Tuberkulyoz. Virusli gepatit V. Genital herpes. SMV. Qizilcha. Toksoplazmoz. Malyariya. Trixomoniaz. Kandidoz.

Tug'ruqdan keyingi infeksiyalar: Klassifikatsiya, etiopatogenez. Klinik shakllari, diagnostika va davolash. Kesar kesishdan keyingi akusherlik peritoniti. Sepsis va bakterial toksik shok xususiyati, ularning etiopatogenezi, klinik kechishi, tashxis, davolash, profilaktika.

15-mavzu: Kichik chanok o'smalari va homiladorlik. Ona va perinatal o'lim auditi.

Mioma. Kistomalar. Bachadon bo'yni raki. Klinika, diagnostika, shifokor taktikasi. Xomiladorlik va tug'ruqni olib borish.

Perinatal o'lim xolatini retsenziya qilish. Tug'ruq og'ir asoratlari xolatlariga retsenziya yozish.

Ona o'limi xolatiga retsenziya qilish.
Tug'ruqdan keyingi depressiya, tragediya va yo'qotish.

3.2.2. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruxga ilmiy unvon (ilmiy daraja)ga va kamida 3 yillik uzluksiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlar maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Fanni o'qitish davomida egalanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Fan davomida egalanadigan rotatsiya va amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Oilaviy poliklinika

Rotatsiya maqsadi: Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini sharoitlarida ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish, homiladorlarga birlamchi tibbiy yordamini ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- OP va QVP da ishni tashkil qilish;
- homilador ayollarga maslahat berish;
- homiladorlarni so'rab-surishtirish (anamnez yig'ish) va ko'zdan kechirish;
- birlamchi bo'g'in sharoitida ayollarda ko'p qo'llaniladigan tashhishlash usullarini qo'llash (homila auskultatsiyasi; bachadon tubi balandligini o'lchash; ko'zgularda tekshirish; bimanual tekshiruv, gravidogramma to'ldirish);
- tashqi akusherlik ko'rikni o'tqazish;
- homila vaznni aniqlash;
- homiladorlik va tug'ruq muddatini aniqlash;
- homiladorlarda patologik holatlarni tashhishlash, davolash va oldini olish;
- ekstragenital kasalliklarni tashhishlash, davolash va oldini olish;
- antenatal parvarishni o'tkazish;
- tug'ruqdan keyingi parvarishni o'tkazish;
- birlamchi tez yordamni o'tkazish;
- sog'lom ona-sog'lom bola tarzi bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish.

2. Akusherlikda ultratovush tashhishlash

Rotatsiya maqsadi: Fetoplantar tizim patologiyasini tashhishlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- ultratovush tekshiruv natijalarini tahlil qilish;

- tahminiy tashhisni qo'yish;
- homilani biofizik holatini aniqlash.

3. Homila yurak faoliyatini baxolash mezon

Rotatsiya maqsadi: Homila yurak faoliyatini baxolash, homilada patologik holatini tashhislash va davolash, oldini olish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- homilaning yurak faoliyatini auskultativ baholash;
- homilaning yurak faoliyatini ultratovush tekshiruv orqali baholash;
- homilaning yurak faoliyatini dopplerometriya orqali baholash;
- tekshiruv natijalarini tahlil qilish;

4. Akusherlikda gormonal va tibbiy-genetik tekshiruv mezon

Rotatsiya maqsadi: Akusherlik va perinatologiyada gormonal va tibbiy-genetik tekshiruv ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- tibbiy – genetik tekshiruvlar o'tqazish;
- gormonal tekshiruvlar o'tqazish;
- tekshiruv natijalarini tahlil qilish;

5. Akusherlik amaliyotda endoskopik va funksional diagnostika

Rotatsiya maqsadi: endoskopik va funksional tekshiruv ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- akusherlikda funksional tekshiruvlarini o'tqazish;
- homiladorlarda endoskopik (amnioskopiya, amniotsentez, laparoskopiya) tekshiruvlarni o'tqazish;
- tekshiruv natijalarini tahlil qilish.

6. Akusherlik amaliyotda nurli diagnostika

Rotatsiya maqsadi: Homiladorlik va tug'ruqdan keyingi davrini patologik holatlarini nurli diagnostika usullari orqali tashhislash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- rentgenologik tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish;
- KT, MRT tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish.

7. Kichik akusherlik jarrohlik:

Rotatsiya maqsadi: kichik akusherlik jarrohliklar ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- Amniotomiya;
- epiziotomiya, epiziorrafiya;
- perineotomiya, perineorrafiya;
- kollirrafiya;
- vaginorrafiya;
- bachadon ichini qo'l bilan tekshirish;
- yo'ldoshni qo'l bilan ajratish va chikarish.

8. Kichik tug'dirish jarrohlilari.

Rotatsiya maqsadi: Kichik tug‘dirish jarrohliklar ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- homilaning holatini to‘g‘rilovchi jarrohligi;
- akusherlik qisqichlarini ko‘yish;
- vakuum – ekstraksiya bajarish;
- homilani chanog‘idan ekstraksiya qilish;

9. Kesarcha kesish, homila yemirish jarrohliklari

Rotatsiya maqsadi: Kesarcha kesish, homila yemirish jarrohliklar ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- laparotomiyani bajarish;
- qorin bo‘shlig‘ini drenajlash;
- kesarcha kesish jarrohligi;
- yo‘ldoshdan keyingi kontrasepsiyani ko‘llash;
- homila yemirish jarrohligi;
- akusherlik jarrohligida og‘riqsizlantirish.

10. Akusherlik va ginekologik reanimatsiya va intensiv terapiya.

Rotatsiya maqsadi: Homiladorlikda, tug‘rukda va boshka vaziyatlarda asoratlari bo‘lgan ayollarni reanimatsiya va intensiv davolash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- og‘ir preeklampsiya, eklampsiya va uning asoratlarini intensiv davolash;
- asoratlar o‘tkazgan ayollarni rehabilitatsiya qilish;
- tug‘ruqdan keyingi qon ketishini bosqichma-bosqich to‘xtatish (qorin aortasini bosish, bachadonni ikki qo‘l bilan kompressiyasi, 3 juft qon tomirlarini bog‘lash, amputatsiya, ekstirpatsiya);
- ketgan kon mikdorini aniklash;
- gemorragik shokka qarshi kurashish;;
- TTIQI-sindromini profilaktikasi va davolash;
- gemotransfuziyani o‘tqazish;
- shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.

11. Ayollarni tug‘ruqqa tayyorlash mezoni

Rotatsiya maqsadi: Homiladorlarni tug‘ruqqa tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- ona va homila ko‘rsatmalariga asosan har xil usullar bilan tug‘ruqni induksiyalash va indutsirlangan va programmashtirilgan tug‘ruqni olib borish.

12. Statsionar bo‘lim.

Rotatsiya maqsadi: Fiziologik va patologik homiladorlikning, tug‘ruqning tashxislash, olib borish usullari va bo‘lishi mumkin bo‘lgan asoratlarning oldini olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- homiladorlik va fetoplasentar tizim holatini tashxislash;
- homiladorlar qusishini davolash va profilaktikasi;
- kolpotsitologiyani bajarish;

- immunologik tekshirish;
- fiziologik tugʻruqning tashxislash, olib borish usullari va boʻlishi mumkin boʻlgan asoratlarning oldini olish;
- tugʻruqning boshlanishini tashxislash, uning klinik kechishi, tugʻruqni zamonaviy olib borish va ogʻriqsizlantirish;
- bachadon buynini yetilganlik darajasini aniqlash;
- normal tugʻruqni olib borish;
- partogrammani toʻldirish;
- chaqaloq holatini Apgar shkalasi boʻyicha baholash;
- tugʻruqning III davrini faol olib borish;
- tugʻruqdan keyingi davrini olib borish;
- yoʻldosh oldida kelishini tashxislash, olib borish va boʻlishi mumkin boʻlgan asoratlarning oldini olish;
- NJYBKda homiladorlikni olib borish va jarroxlilik usuli bilan davolash;
- tugʻruqdan keyingi qon ketishini bosqichma-bosqich toʻxtatish;
- tugʻruq yoʻllarini yumshoq tuqimalarini tikish;
- tugʻruqdagi disproporsiya xolatlarini aniqlash va olib borish;
- koʻpsuvlilik va kamsuvlilikda, yirik homilada, kindik tizimchasining tushishida, jinsiy aʼzolar patologik oʻzgarishida, bachadon chandigʻida, muddatidan oʻtgan homiladorlikda, birinchi tugʻuvchi ayollarda yirik homila va boshqa asoratli omillarda tugʻdirish;
- tashqi akusherlik koʻrigini oʻtqazish;
- Leopold-Levinskiy usulini qoʻllash;
- homiladorlik muddatini aniqlash;
- tugʻruq muddatini va homila vaznini aniqlash;
- koʻzgularda koʻrik, bimanual koʻrikni oʻtkazish;
- yoʻldoshdan keyingi kontrasepsiyani koʻllash;
- ixtiyotiriy jarrohlilik sterilizatsiyasi (IJS) amaliyotini bajarish.

13. Perinatal yordam.

Rotatsiya maqsadi: Chaqaloq reanimatsiyasi, olib borishning umumiy prinsiplari, parvarishlash va olib borishchora-tadbirlarini koʻnikmalariga ega boʻlish.

Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:

- chaqaloq holatiga tezkor baho berish;
- chaqaloq reanimatsiyasi oʻtkazish;
- kam vaznli chaqaloqlarni parvarishlash;
- tugʻruq travmmalarini tashxislash va tezkor terapiya oʻtkazish;
- chaqaloqlar bakterial infeksiyasini tashxislash va tezkor terapiya oʻtkazish.

Fan davomida oʻquv (klinik) amaliyotni tashkil etish boʻyicha umumiy koʻrsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashgʻulotlarni tashqil etish boʻyicha kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan koʻrsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Nazariy mashgʻulotlarda olgan bilim va koʻnikmalarni bemorlarni qabul qilish, kurish, kuzatish va olib borish orqali mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga moderatorlar, trenerlar, shifokorlar boshchiligida tibbiy yordam koʻrsatish va mustaqil ishlash yoʻli bilan erishiladi. Shuningdek, darslik va oʻquv qoʻllanmalar asosida magistratura talabalari bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, bemorlar bilan ishlash,

vaziyatli masalalar yechish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali magistratura talabasi bilimni oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, qonun va me'yoriy xujjatlardan foydalana bilish va boshqalar tavsiya etiladi.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari ro'yxati:

1. Ayollar reproduktiv tizimi anatomiya va fiziologiyasi. Kichik chanok qon tomirlari va siydik nayi topografik anatomiyasi.
2. Xomilador ayollarni tekshirish metodlari: asosiy (AQB, Rs, qon, peshob taxlili, tana vaznini o'lchash, pelviometriya, xomila yurak urishi, Rh-omilni aniqlash va boshqalar) va qo'shimcha.
3. Antenatal salomatlikni psixosotsial baxolash.
4. Bo'lajak ota-onalarni o'qitish: xomiladorlik davrida, tug'ruqda, tug'ruqdan keyin parvarishlash, bolani parvarishlash, xomiladorlik davrida jinsiy xayot.
5. Xomiladorlikni tashxislash.
6. Xomilani rivojlanish bosqichlari. Ontogenez kritik davrlari.
7. Kichik chanoq o'lchamlari. Xomila tug'ruq ob'ekti sifatida.
8. Tug'ruq davrlari. Xomila boshi bilan kelganda tug'ruq biomexanizmi. Tug'ruq akti boshlanishi patofiziologiyasi.
9. Bachadon bo'yni yetilganligini baxolash. Bachadon bo'yni ochilish mexanizmlari.
10. Tug'ruq yo'llari yumshoq to'qimalari jaroxatlari.
11. Tug'ruqdan keyingi davr fiziologiyasi.
12. Chaqaloqlik davr fiziologiyasi.
13. Xomila gipoksiyasi. Chaqaloqlar tug'ruq jaroxatlari.
14. Chanoq bilan kelish turlari.
15. Yallig'lanish patofiziologiyasi.
16. Shok patofiziologiyasi.
17. Xomiladorlik davrida medikamentoz terapiya prinsiplari.
18. Gipertenziyalar etiologiya va patogenezi.
19. Qon aylanish yetishmovchiligi tasnifi va tashxislash. Revmatik isitma faollik bosqichlari.
20. Appenditsit, ichak tutilishi, xolesistit, pankreatin, peritonit klinikasi.
21. Qon guruxlari va rezus omilni aniqlash.
22. Qon ivish sistemasi patofiziologiyasi.
23. Akusherlikda rezus omil.
24. Xirurgiyada chok qo'yish turlari.
25. Qorin old devori anatomiyasi. Chanoq tubi anatomiyasi.
26. Narkoz bosqichlari. Oo'riqsizlantirish turlari.
27. Sut bezi tuzilishi.
28. Akusherlik bo'limida sanepidrejim.
29. Qo'llar, operatsion maydonga antiseptik ishlov berish.
30. Instrumentlar, ignalar, qo'lqoplar, xalatlar va boshqalar bilan ishlash.
31. Tug'ruqdan keyingi depressiya, tragediya, yo'qotish.
32. To'satdan bola o'lish sindromi.
33. Xomiladorlarda gemostaz buzilish patofiziologik asoslari: -qon ivish va ivishga qarshi omillar;

- qog'onoq suvlar emboliyasi. Sabablari. Bosqichlari. Klinikasi. Oqibatlari. 34. Shoshilinch yordam, ko'rsatmalari, turlari.
35. Tarkalgan tomir ichi qon ivish sindrom. Sabablari. Bosqichlari. Klinikasi. Oqibatlari. Shoshilinch yordam. Profilaktikasi. Davolash.
36. O'pka arteriyasini tromboemboliyasi. Sabablari. Bosqichlari. Klinikasi. Oqibatlari. Shoshilinch yordam.

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- taqdimotlar tayyorlash;
- o'quv adabiyotlari bilan ishlash;
- ilmiy jurnallar bilan ishlash;
- internet ma'lumotlarini o'rganish;
- bemorlar kuratsiyasi;
- navbatchilikda turish;
- vaziyatli masala va testlar tayyorlash;
- masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Akusherlik Fani bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlarida trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatidan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish bayonnomalarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik bayonnomalarida aks ettirish;
- davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan bemorlar kuratsiyasida va tug'ruqda ishtirok etish;
- ayollar orasida infeksiya profilaktika ishlarni, suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Fanning (fanning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlar va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish va tayyorlash;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish, testlar tayyorlash va h.k.

Malakaviy amaliyotni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Malakaviy amaliyot davrida magistratura talabasi kunma-kun malakaviy amaliyot jurnali shaklida to'ldirib boradi. Amaliyot rahbari tomonidan har bir amaliyot kuni davrida bajarilgan ishlar hajmi baholanadi va kundalik imzolanadi.

Malakaviy amaliyot jurnalidagi ma'lumotlar talabaning amaliy ko'nikmalarga ega bo'lganlik darajasi haqida ma'lumot beradi.

Malakaviy amaliyot tugagandan so'ng malakaviy amaliyot jurnali oxirida amaliyotga javobgar shaxs tomonidan talabaning ishi baholanadi va unga tavsifnoma yoziladi, u muassasa muhri bilan tasdiqlanadi va malakaviy amaliyot jurnali topshiriladi. Agar bajarilgan ishni ifoda etgan kundalik topshirilmasa, amaliyot o'tilmagan deb hisoblanadi.

Malakaviy amaliyotni yakuniy baholashini tuzilgan komissiya amalga oshiradi. Komissiya a'zolari OTM rektori tomonidan buyruq asosida tuziladi.

Malakaviy amaliyotining yakuniy baholash natijalari komissiya tomonidan qaydnoma varaqasiga kiritiladi va dastur direktori tomonidan reyting daftarchasiga to'ldiriladi. Malakaviy amaliyot dasturini (sababli, sababsiz) bajarmagan talabalar yakuniy baholashga kiritilmaydi va akademik qarzdor talaba sifatida muammolari magistratura bo'limi va rektorat tomonidan ko'rib chiqiladi va individual qaror qabul qilinadi (rasmiylashtiriladi).

5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

5.1. Asosiy adabiyotlar

1. Akusherstvo: uchebnyk / G.M. Saveleva, R.I. Shalina, L.G. Sichinava, O.B. Panina, M.A. Kurser. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: GEOTAR-Media, 2018. - 576 s.: il. NF000892.
2. "Benson&Pernoll's handbook of Obstetrics & Gynecology" Martin L., Pernoll M.D., 2011.
3. "Obstetrics and Gynaecology" Joan Pitkin, Alison B. Peattie, Brian A. Magowan, 2013.
4. The Johns Hopkins Manual of Gynecology and Obstetrics¹ Editors: Nicholas SLam-brou, Abraham N. Morse, Edward E. Wallach, Lippincott, Williams & Wilkins, 2011.
5. Yu.K. Djabbarova, F.M. Ayupova. Akusherlik. Tashkent, 2013.-324s.
6. Kriticheskie sostoyaniya v akusherstve i ginekologii. Rukovodstvo dlya vrachey. Tashkent, 2015.- 132s.

5.2. Ko'shimcha adabiyotlar:

7. Natsionalnyy standart po povysheniyu kachestva okazaniya perinatalnoy pomoshchi v rodovspomogatelnykh uchrejdeniyax sistema zdравоохraneniya Respubliki Uzbekistan. Tashkent, 2015. 136s.
8. Akusherstvo i ginekologiya. Prakticheskie navyki i umeniya s fantomnym kursom: ucheb. Posobie, 2018.
9. Akusherstvo i ginekologiya. Pod redaksiyey G.M. Savelevoy M. 2009

10. Передовые практики в акушерстве и гинекологии. Руководство. D.K. Najmutdinova s soavt. Tashkent, 2017.500s
11. Neotlojnaya pomoshch v akusherskoy praktike. Paket uchebnykh materialov po IVBR. USAID, Proekt Zdorovaya Semya. Tashkent. - 2014.-209s.
12. Preduprezhdenie transmissiy VICH ot materi rebenku (uchebnoe posobie dlya akusher- ginekologov, neonatologov, pediatrov, infeksionistov, semeynnykh vrachey, organizatorov zdravooxraneniya, vrachey-internov i studentov), Ukraina. UNICEF, 2013.-268s.

5.3.Internet saytlari

13. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
15. www.tma.uz.
16. www.med-info.ru
17. www.rosmedlib.ru
18. www.pubmed.com
19. www.ziyonet.uz
20. www.medlinks.ru

